

MAKTABGACHA TA'LIMNING USLUBIY TA'MINOTI VA UNING AHAMIYATI.

Shodiyeva Shoxida Inatovna

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang'ich
yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrasи o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'limning uslubiy ta'minoti va uning ahamiyati haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, samarali tizimini tashkil etish, usullarini joriy etish, ta'lim-tarbiya, xizmatlar turlari, sifatli ta'lim, innovatsiyalar, malakali pedagoglar, ijodiy yondashgan, o'quv-metodik adabiyotlar.

Annotation: This article talks about methodological support of preschool education and its importance.

Key words: Pre-school education, organization of an effective system, introduction of methods, education and training, types of services, quality education, innovations, qualified pedagogues, creative approach, teaching-methodical literature.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning mактабгача та'лим билан қамровини та'minlash, мактабгача та'лим ташкilotlarini zamonaviy о'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mактабгача та'лим тизимини yanada takomillashtirish, bolalarning sifatlι mактабгача та'limdan teng foydalanishini ta'minlash, мактабгача та'лим xizmatharining nodavlat sektorini rivojlanirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Mактабгача та'лим тизимини boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, мактабгача yoshdagи bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, мактабгача та'лим тизимiga innovatsiyalarini, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosiy vazifalar etib belgilandi.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, о'quv-metodik adabiyotlar, о'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida mактабгача та'лим tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda mактабгача та'лим тизимини tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021-yillarda mактабгача та'лим тизимини yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016-yil 29-dekabragi PQ-2707-sonli, «Mактабгача та'лим тизимини tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 -yil 9 -sentyabrdagi PQ-3261-son qarorlari, «Mактабгача та'лим тизими boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 -yil 30 -sentyabrdagi

PF-5198-sonli Farmoyishi shular jumlasidandir. Maktabgacha yoshdagi bolaga ta'lim-tarbiya berish ko‘p jihatdan ta’limni maktabgacha yoshdagi bola ruhiy xususiyatlariga javob beruvchi dasturlar, metodik tavsiyalar, ta’lim-tarbiya berish qo‘llanmalari bilan ta’milanishiga bog‘liq.

Ta’limda qo‘llaniladigan ta’lim qo‘llanmasi bola va kattalarning o‘zaro munasabatlarining shaxsga yo‘naltirilganligini ta’minlovchi qo‘llanmadir (alohida ish uchun daftar, albomlar, flomaster, qalam, bo‘yoq va boshqalar).

Bugungi kunda maktabgacha ta’limdagi muammolarni hal etish bilan shug‘ullanadigan barcha tashkilotlar, ularni bir-biri bilan hamkorlik va muloqotni amalga oshirgan holda muvofiqlashtirish qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish hamda samarali yechimni topishga yo‘naltirilganligi ko‘zda tutiladi.

«Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-sonli qaroridagi maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da ko‘zda tutilgan “Sifatlari o‘quv-metodik va didaktik materiallar (shu jumladan, o‘yinlar va o‘yinchoqlar) va badiiy adabiyotlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan bosma materiallarni turli tillarda ishlab chiqishning bozori va turlarini rivojlantirish” bo‘limida turli imtiyoz va preferensiyalarni taqdim qilish orqali xususiy investitsiyalarni keng jalb qilgan holda maktabgacha ta’lim uchun o‘quv-metodik va didaktik adabiyotlarni tayyorlash, ekspertiza qilish va chop etish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan. Ilmiy xizmat nafaqat umumiyligi, balki O‘zbekistonning ta’lim sohasiga oid bo‘lgan hududiy muammolarni qamrab olgan tadqiqotlar bilan ham shug‘ullanishi lozim. Bu: turli turdagagi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonni tashkil etishning shakl va mazmunini ishlab chiqish, o‘zbekcha-ruscha ikki tillilik (ko‘ptillilik-bilingvizm) muammosi, bolalar rivojlanishi

darajasining psixologik, pedagogik va ijtimoiy diagnostikasi, pedagoglarning kasbiy darjasи, oila, mакtabgacha va boshlang'ich ta'lim hamkorligi, ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modelining ustuvor (bosh) tаtbiq qilishning usul va texnologiyalari va boshqa bir qancha dolzarb masalalar.

- Uslubiy xizmat (ilg'or tajriba va fan yutuqlarini) metodik qo'llanmalar, o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqishni ta'minlaydi;
- Tajriba-sinov maydonida olib borilayotgan pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish, pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va tarqatish;
- Pedagogik jamoa va alohida pedagoglarning yangi fikrlari;
- Mualliflik mакtabgacha ta'lim tashkilotlarining ochilishiga yordam berish, tarbiyachilarining uslubiy birlashmalarini tashkil etish va boshqalar.

Psixologik-pedagogik maslahat xizmati ota-onalar va bolalar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelayotgan pedagoglar uchun maslahatlar beradi, tarbiyachilarining kasbiy-shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarini diagnostikalashja yordam beradi, o'qitish uslubining psixik korreksiyalashni amalga oshiradi, pedagogni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlaydi, shuningdek, psixolog uchun qo'llanmalar tayyorlaydi, alohida mакtabgacha ta'lim tashkilotlariga boradigan bolalarning tekshiruvini o'tkazadi va va tezkor qabulni amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son [Qarori](https://lex.uz/docs-4327235) <https://lex.uz/docs-4327235>.



**Ilim fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016-yil 29-dekabragi PQ-2707-sonli Qarori
4. Л.Р.Миржалолва ва бошқалар Мактабгача таълимда замонавий ёндашувлар модули бўйича Ўқув-услубий мажмua Т.: 2017.
5. Ишмуҳамедов Р. Ўқув жараёнида интерфаол услублар ва педагогик технологияларни қўллаш услубияти. Т.: РБИММ, 2008.